

## O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH

**Abdurazakova Markiza Abduqayumovna,**  
e-mail: [abdurazakovamarkiza16@gmail.com](mailto:abdurazakovamarkiza16@gmail.com).  
O'zbekiston davlat Jahon tillar Universiteti talabasi  
Supervisor: **Sharipova Dilnoza**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til o'rganish jarayonida o'qish ko'nikmalarining ahamiyati va o'quvchilarda bu borada uchraydigan muammolarni bartaraf etishning samarali pedagogik yondashuvlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, kuzatish va adabiyotlar tahlili metodlaridan foydalanildi. Maqola yakunida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali interaktiv usullar va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha natijalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish ko'nikmasi, interaktiv metodlar, til o'rganish, pedagogik yondashuv, muommoli ta'lim, innovatsion texnologiyalar.

**Аннотация:** В данной статье исследуется значение навыков чтения в процессе изучения языка и эффективные педагогические подходы к устранению проблем, возникающих у учащихся в этой сфере. В ходе исследования использовались методы сравнительного анализа, наблюдения и анализа литературы. В заключении статьи описаны эффективные интерактивные методы, способствующие развитию навыков чтения, и результаты их практического применения.

**Ключевые слова:** навыки чтения, интерактивные методы, изучение языка, педагогический подход, проблемное обучение, инновационные технологии.

**Abstract:** This article explores the significance of reading skills in the language learning process and effective pedagogical approaches to overcoming the challenges students face in this area. During the research, methods of comparative analysis, observation, and literature review were utilized. The conclusion of the article highlights effective interactive methods that contribute to the development of reading skills and presents the results of their practical application.

**Keywords:** reading skills, interactive methods, language learning, pedagogical approach, problem-based learning, innovative technologies.

O'qish ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat xorijiy tillarni o'zlashtirishda, balki insonning intellektual salohiyatini oshirishda ham fundamental ahamiyatga ega. Yangi tilni o'rganuvchilar uchun mutolaa jarayoni leksik birliklarning kontekstda ishlatilishini tushunish va til muhitiga kirishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Zero, o'qish jarayonida inson yangi hayotiy ko'nikmalar, tizimli bilim va malakalarni egallab boradi. (Grellet, F. *Developing Reading Skills*. Cambridge University Press, 1981.)

Interaktiv usullar – o'quvchilarni faol fikrlashga, tanqidiy tahlilga va mutolaaga bo'lgan qiziqishni oshirishga undaydigan pedagogik vositadir. Mazkur yondashuvda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshiradi: o'qituvchi yo'naltiruvchi (fasilitator) rolini bajarsa, o'quvchi tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa dars davomida diqqatni jamlashga va mavzuni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. (Brown, H. D. *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education, 2007.)

**Metodologiya va sabablar.** Maktab yoshidagi o'smirlar orasida o'tkazilgan "Ingliz tilidagi matnlarni o'qishga bo'lgan munosabat" mavzusidagi tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik o'quvchilar mutolaaga qiziqishadi. Lekin pedagogik va psixologik muommolar sababli, darslikda berilgan matnlarni o'qish jarayonida ularda sustlik va o'zlarini chetga olish holatlari kuzatiladi.

Muammoni aniqlash uchun olingan so'rovnomaga javoblari o'qish o'quvchilar uchun birmuncha murakkab ekanligini ko'rsatdi:

- Sinfning 1/3 qismida muammo – yangi so'zlar bo'lsa.
- Qolgan qismida - grammatika va uzun gaplar ekanligini aytishgan.
- Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar matnni ovoz chiqarib o'qishga salbiy qarashda ekanligini ta'kidlashgan.

Ushbu muammolarga samarali yechim sifatida darslarda interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Quyida yuqoridagi muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan metodlar keltirilgan;

1. Taxmin qilish usuli (Prediction Activity) - Dars boshlanishidan oldin o'qituvchi o'quvchilarni matn sarlavhasi va berilgan rasmlar orqali matn nima haqida ekanligini taxmin qilib ko'rishlarini so'raydi. Bu o'quvchilarni matn o'qish jarayoniga qiziqishini orttirishga yordam beradi.

2. So'zlarni izlab topish ( Vocabulary hunt ) – Matndan yangi so'zlarni topib, ularning ma'nosini aniqlash. Bunda, asosan, o'qituvchi yangi so'zlarni tarjima qilishga yordamlashadi.

3. Bo'laklab o'qish usuli ( Jigsaw reading ) – Bunda matn bo'laklarga bo'linadi va har bir guruhga taqsimlanadi. Har bir guruh o'z qismini o'rganib, keyin boshqalarga tushuntirishi kerak bo'ladi. (Aronson, E. *The Jigsaw Classroom*. Beverly Hill, 1978.)

4. O'yla – Juft – Ulash ( Think – Pair – Share ) – Bu metodda o'quvchilar avval matnni o'zlari o'qiydilar, keyin sherigi bilan muhokama qiladi, so'ngra o'z fikrini sinfga taqdim etadi. (Lyman, F. *The responsive classroom discussion*. University of Maryland, 1981.)

5. Guruhiy muhokama ( Group discussion ) – O'quvchilar bu usul orqali matndan nima o'rganganligini tahlil qiladilar va dars boshidagi taxminlari qanchalik to'g'ri chiqqanligini tekshiradilar.

6. O'qish viktorinasi/o'yin ( Quiz, Kahoot, Quizlet ) – Dars oxirida o'quvchilarning o'rgangan ma'lumotlarini yoki yangi so'zlarni o'yin tarzida mustahkamlash jarayonidir.

**Tahlil.** Bu kabi interaktiv usullardan foydalanish o'quvchilardagi o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, taxmin qilish usuli orqali o'quvchilarni matnga bo'lgan qiziqishini uyg'otish mumkin. 5ta bilmagan so'zlarini varoqqa yozib, ma'nosini aniqlash orqali lug'at boyligi bilan bo'ladigan to'siqlarni olib tashlaydi. Uzun matnlarni o'qish davomida charchoq hissini bartaraf etish maqsadida bo'laklarga bo'lib o'qish usuli qo'llaniladi. Dars oxiriga kelib, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, viktorina o'yinlarini o'tkazish o'quvchilarni mavzuga jalb qilibgina qo'ymay, darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. (Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching*. Pearson, 2015.)

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o'qish ko'nikmalarini shakllantirish insonning bilim darajasini kengaytiradi. Ammo, bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun faqatgina o'qishning o'zi, afsuski, yetarli emas. O'quvchilardagi diqqat buzilishi va qiziqishning tezda so'nishi jarayondagi asosiy muammolardan biridir. Interaktiv usullarni darslarga

integrallashtirish natijasida o'quvchilarning chuqur tushunish ko'nikmalari hamda tahlil qila olish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Xususan, yuqoridagi metodlarni darsda qo'llash o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qo'rquvini yengishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Aronson, E. The Jigsaw Classroom. Beverly Hill, 1978.
2. Lyman, F. The responsive classroom discussion. University of Maryland, 1981.
3. Brown, H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education, 2007.
4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Pearson, 2015.
5. Grellet, F. Developing Reading Skills. Cambridge University Press, 1981.